

NAVOIY NASRINING TALQINIDA MAHORATLI OLIM USLUBI

N. Saidova¹

Annotatsiya:

Maqola Navoiyning nasriy asarlari tadqiqiga bag'ishlanadi. Unda adabiyotshunos olim Rahim Vohidovning tahlil va talqin usuliga urg'u beriladi. Nasriy asarlar talqinida olimning mahorati bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: uslub, nasriy asar, navoiyshunoslik, tahlil, talqin, germenevtika, janr.

doi: <https://doi.org/10.2024/7h5h6945>

Tahlil va talqinni sarlavhadan boshlash ham badiiy matnning germenevtik tadqiqida o'ziga xos bir usul sanaladi. Gyubbenet badiiy matnni to'g'ri idrok etish va tushunish uchun zarur bo'lgan "fon bilimlari" haqida fikr yuritar ekan, uning tarkibiga asar sarlavhasini ham kiritadi. Olimning ta'kidicha, "fon bilimlar" - turli unvonlar, nomlar (antroponimlar), geografik nomlar, muassasa nomlari (toponimlar), jumladan, asar nomlari ham badiiy matnning sharhida ahamiyatli sanaladi. Ko'rinish turibdiki, Rahim Vohidov ham asar tahliliga shu yo'sunda kirishadi. Dastlab asar sarlavhasining mohiyatini o'quvchiga ochib beradi. Albatta, bunday yondashuv sarlavhaga asarning qismi sifatida qarashdan kelib chiqadi. Bu esa germenevtik yondashuvning o'ziga xos xususiyati sanaladi. Bundan tashqari, Alisher Navoiy nasrining tili murakkab. "Biz o'tmishda yashab ijod etgan, uslubi tushunish uchun ma'lum darajada og'ir shoir va adiblarimiz asarlarini zamonaviy kitobxonga yaxshi va oson tushunishi uchun ilmiy izohlarni ko'paytirish, she'riy asarlarning nasriy bayonlarini yaratish, maxsus lug'atlar tuzish bilan qattiqroq shug'ullanmog'imiz kerak. Toki Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarimiz asarlarida keng kitobxonlar ommasi tushunmagan biron bayt, biron satr qolmasin".

Rahim Vohidov o'z talqinlari jarayonida Navoiy nasrining yana bir muhim jihatiga e'tibor qaratadi. Olim ulug' adib nasrining nafosatiga tegishli qaydlarida tarixiy asarlarida qo'llangan badiiyat unsurlarining muhim xususiyatlarini qayd qilib o'tadi: "Sosoniylar sulolasidan bo'lgan Bahrom Binni Bahromga doir ma'lumotnomada o'qiyimiz: "Sha'ni arjumand va axloqi dilpisand podshoh erdi, axloqi elga marg'ub va atvori ulusqa matlub. Zulm binosin buzdi va adl asosin tuzdi. Ammo davroni umridek bevafo erdi va umri davronidek bebaqo"

Ko'chirganimiz iqtibos yana bir jihatdan ahamiyatli. "Tarixi anbiyo va hukamo"ga doir sahifalarda qayd etganimizdek, muallif tarixga doir qalam sursa-da, undagi yuksak badiiy salohiyat so'zlar bag'ridagi joziba, hamisha o'zini namoyon qilib turgan. Bahrom Binni Bahromga oid ixcham parchada ham sohir qalamning nazokati ishga solinadi va musajja' san'atiga rivoj beriladi, ya'ni nasriy parchalarda ichki qofiyaga murojaat qilish yetakchi badiiy jilo darajasiga ko'tariladi. Ta'kidlash joiz, bunday dilkash lavhalar tarixiy asarning deyarli barcha sahifalarida nazarga tashlanadiki, ayni fazilat "Tarixi muluki Ajam"ni nafosat bilan yozilgan badiiy asarlar safiga qo'shib qo'ygan.

Ta'kidlash kerakki, "Tarixi muluki Ajam" tarixiy asarida mavjud an'analarga to'liq rioya qilingan. Asarda nazm va nasr namunalari qorishiq berilgan. Mazkur asarda keltirilgan she'riy parchalar "Tarixi anbiyo va hukamo"ga nisbatan ikki baravar ko'pdir. Har bir hukmdor

¹ Saidova Nodira Mustakimovna, Buxoro davlat universiteti

haqidagi mushohadalarning falsafiy umumlashmasi sifatida kelgan bunday she'rlar 226 satrni tashkil qiladi. Xotima o'rnila esa 100 misralik masnaviy keltiriladi. Ayni satrlar "Tarixi muluki Ajam"ga xotima vazifasini o'tash bilan birga sulton Husayn Boyqaro davriga tegishli yozilishi rejalashtirilgan tarix uchun debocha vazifasini o'tagan.

Ulug' shoir asarlarida o'z zamondoshlariga, ayniqsa, temuriyzoda shahzodalariga qaratilgan pand-nasihatlar tez-tez ko'zga tashlanadi. Shoirning bunday pand-nasihatlarida uning komil jamiyat va komil inson, adolatli hukmdor haqidagi orzu – istaklari ufurib turadi. Buni asar so'ngida kelgan masnaviy sharhida ham ko'rishimiz mumkin:

Birovgaki ro'zi bo'lub shohliq,
Zamirig'a solsa haq ogohlil.
Ki bilsa jahong'a vafo yo'qturur,
Jahon ahlig'a ham baqo yo'qturur.
Ko'ziga jahon hashamatin ilmasa,
Haq amridin o'zga amal qilmasa
Adolat uchun istasa mulku joh,
Sitam daf' aylarga cheksa sipoh

Ko'chirganimiz iqtibosdagi satrlar teran g'oyaviy mazmuni bilan bir qatorda yuksak badiiyati nuqtai nazaridan ham kitobxon e'tiborini jalb eta oladi. Parchadagi "shoh", "ogoh", "vafo", "baqo", "ilmasa", "qilmasa", "joh", "sipoh" so'zlari o'zaro qofiyalanib, ohangdoshlik va ravonlikni ta'min etgan. Muhimi, ulug' shoir qofiya hosil qilmoq uchun mazmunni qurban qilmaydi. Aksincha, uni kuchaytirishga xizmat qiluvchi so'zlarni mohirona qo'llaydi. Shoh uchun ogohlilik suv va havodek zarur. Ana shu vositani qo'ldan bergen hukmdor mulk va ulusni xarob qiladi. Bergen so'zi ustidan chiqolmay, bevafolik girdobiga tushib qoladi. "Tarixi muluki Ajam"da zikri o'tgan tojdlarning aksariyati 40-60 yilgacha saltanat surgan. Ammo foni olam ularga baqo etmagan. Sipohini ishga solib, zo'ravonlik qilganlar esa, yurtni xarob qilib, o'zidan dod qoldirgan. Shunday ekan, hukmdor qo'shindan xabardor bo'lmos'i, uni boylik ilinjida ishlatmasligi zarur.

Ko'rinish turibdiki, Rahim Vohidovning asardan olgan taassurotlari, uni tushunishi bilan bog'liq qarashlari, bir tomonidan, uning muallifi olamini anglashga yo'l ochsa, ikkinchi tomonidan, olim dunyoqarashi, ilmiy mushohadalari, ma'naviy olamining aksi sifatida namoyon bo'ladi.

Olim Alisher Navoiyning tarixiy asarlarga oid mushohadalarini yakunlar ekan, shunday yozadi: "Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, Alisher Navoiy ma'naviy bisotidagi har bir satr va jumlanigina emas, balki har bir so'z atrofida teran mushohada yuritmog'imiz, ular mag'zini chaqmog'imiz lozim. Shundagina buyuk bobokalonimizning munavvar ruhlari bizdan shod bo'lg'usidir!". Olim butun faoliyati davomida ana shu niyatda qalam tebratdi. Ulug' shoir asarlari qavatlardagi har bir so'z-u jumla mohiyatini ochishga, ularni bugungi kun o'quvchisiga yetkazishga, shu bilan ulug' shoir ruhi oldidagi insoniy burchni bajarishga o'zini mas'ul deb bildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Гюббенет И.В. Основы филологической интерпретации литературно художественного текста. - М.: МГУ, 1991. - 205 с
- [2]. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz uqlari. - T.: O'qituvchi, 1997. - 95-bet.
- [3]. Navoiy Alisher. MAT. XX jildlik. XVI jild. Tarixi mulki ajam. - T.: Fan, 2000 - 228- b.
- [4]. Vohidov R. Armonga aylangan adabiy orzular. -T.: Fan, 2009.61-b.
- [5]. Tojiboyev M. Maktabda germenevtik mezonlar lingvopoetika san'atini o'rganish. Sentral asian academic journal of scientific research. issn: 2181-2489 volume 2 / issue 1 / 2022.149-157-b.

- [6]. Nodira, Saidova. "Navoiy va ilohiyot muammosi rahim vohidov talqinida." *Innovations in Technology and Science Education* 2.8 (2023): 681-689.
- [7]. Mustakimovna, Saidova Nodira. "Matn tahlilida zamonaviy yondashuvlarning o'rni." *Models and methods for increasing the efficiency of innovative research* 2.18 (2022): 92-96.